

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 12 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Hadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDAGI INNOVATSION ISLOHOTLARNING NATIJALARI.....	13-16
<i>Равшанов Махмуд</i> ЗАСЛУГИ АЛИШЕРА НАВОИ В ИЗУЧЕНИИ РАЗВИТИЙ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ	17-19
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> FARG'ONA VODIYSIDA HASHAR YO'LI BILAN QURILGAN GIDROINSHOOTLAR TARIXIDAN	20-24
<i>Jumaboyev Azizjon Sayfiddin o'g'li, Shenkar Michael</i> SHARQ MAMLAKATLARIDA MIRZO ULUG'BEK ILMIY MEROSINING O'RGANILISHI	25-30
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON–ROSSIYA ENERGETIK ALOQALARI TARIXI:LUKOYL MISOLIDA	31-36
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> OLIY TA'LIM VA ILMIY-TEXNIK HAMKORLIK: O'ZBEKISTON HINDISTON HAMKORLIGINING ILMIY SALOHİYATI VA ISTIQBOLLARI ...	37-40
<i>Aytmuratova Janilsin</i> FROM THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF ARCHAEOLOGICAL SCIENCE IN KARAKALPAKSTAN	41-44
<i>Toreniyazov Jalgas Yerjanovich, Rzaeva Manzura Abatovna</i> JANUBIY OROL BO'YI SHAHARLARI TARIXI BO'YICHA MANBALAR (SHARQ MANBALARI).....	45-49
<i>Baqoyev Umidjon Shuhrat o'g'li</i> ABBOS I VA VALI MUHAMMADXON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR	50-55
<i>Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li</i> ANDIJON VILOYATI SUV XO'JALIGI BIRLASHMASI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991-1996-YILLAR MISOLIDA).....	56-60
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> XOTIN-QIZLARNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI: TARIXIY JARAYON VA HOZIRGI TENDENSIYALAR	61-65
<i>Choriyeva Nargiza Ibotovna</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA TURIZM SOHASINING HUQUQIY ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	66-69
<i>Fayzullayev Oybek</i> O'RTA OSIYO XONLIKLAR TARIXINI O'RGANISH (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHIDAGI RUS MANBALARI ASOSIDA)	70-74
<i>Norboyev Ravshan Saydulla o'g'li</i> SHIMOLI-G'ARBIY BAQTRIYANING ELLINIZM DAVRI ARXEOLGIK YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI	75-79
<i>Rajabova Nazira Shaxobovna</i> O'ZBEK XALQ AFSONALARIDA AYOL OBRAZLARINING TASVIRLARI	80-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Gabbarov Sabit Nietali'evich

QO'Y VA ECHKILAR BOSH SONINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA
PROGNOZLASH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
(QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANI MISOLIDA) 85-89

Xolmurotov Fozil

XORAZM VILOYATIDA EKSPORT NATIJALARI VA REAL SEKTOR
RESURSLARI O'RTASIDAGI KO'P O'LCHOVLI BOG'LIQLIK 90-103

Raximov Faxriddin Shavkatovich

TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MARKETING
SAMARADORLIGIGA TA'SIRI 104-116

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Xoliqov Yunus Ortiqovich

YANGI O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO MADANIYATNI
YUKSALTIRISH STRATEGIYASI 117-121

Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi

JADIDLAR MEROSI VA ZAMONAVIY JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA
MA'NAVIY QADRIYATLARNING ROLI 122-128

Jumayeva Shaxlo Suyunovna

TALABALARDA INTELLEKTUAL MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI 129-133

Yazdonova Saxiba Kurbanovna, Sanaqulov Sardor Isaqulovich

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI BOSHQARISH METODIKASI 134-138

Danabayev Xurshid Napasovich

SPORT TURLARI VA FALSAFIY-ESTETIKANING DIALEKTIK TAHLILI 139-142

Shokirov Tohirjon

CHOLG'U SOZLARINING YOSHLARNING MA'NAVIY YUKSALISHIDAGI
O'RNI VA AHAMIYATI (DUTOR VA RUBOB SOZLARI MISOLIDA) 143-148

Raxmatov Alisher Obidovich

YANGI O'ZBEKISTONDA SHAXS ZAMONAVIY IJTIMOYIY JARAYONLARGA
INTEGRATSIYALASHUVINING FALSAFIY TAHLILI 149-152

Abduraxmanova Nodiraxon Xusnutdinovna

HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA:
IJTIMOIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR 153-158

Axatova Dildora Axtamovna

IBN SINONING "RISOLAYI FIL-HUZN" ASARINING FALSAFIY TAHLILI 159-163

Toshboboyev Maksud Jalilovich

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA SUN'IY INTELLEKT VA IJTIMOYIY JARAYONLAR
DIALEKTIKASI 164-168

Abdiyev G'ayrat Ergashevich

YANGI O'ZBEKISTON SIYOSIY AMALIYOTIDA YOSHLARNING IJTIMOYIY-SIYOSIY
FAOLLIGINING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI 169-174

<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA O'ZBEK YOSHLARINING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARIDAGI O'ZGARISHLAR	175-179
<i>Sodirjonov Muhridin Mahamadaminovich</i> RAQAMLI JAMIYATDA INSON KAPITALI RIVOJLANISHI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR.....	180-187
<i>Abduraxmonov Xasan Ibroximovich</i> YOSHLAR DUNYOQARASHIDA INNOVATSION TASHABBUSLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	188-192
<i>Norbo'tayev Islombek Musurmonovich</i> POSTHAQIQAT SIYOSATI: ALTERNATIV AXBOROT OQIMLARI ORQALI DEZINFORMATSIYA	193-198
<i>Ergashev Alijon Boxodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING TRANSFORMATSIYASI.....	199-203
<i>Elmuradova Surayyo Abdijalilovna</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARINING YANGI MODEL.....	204-207
<i>Bobamirzayev Abdulaziz</i> RAZIYY AD-DIN AS-SARAXSIY HAYOTI VA ASARLARI HAQIDA ILK MA'LUMOTLAR.....	208-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDAGI IJTIMOY O'ZGARISHLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR	212-216
<i>Do'snazarov Mirjalol Esanboy o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA HAYOT VA O'LIM MUAMMOSINING FALSAFIY-AXLOQIY MEXANIZMLARI	217-221
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> FALSAFADA INSON QADRI TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA GENEZISI	222-226
<i>Muhammadiyev Bekzod O'ktamjon o'g'li</i> VIRTUAL MULOQOTDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIYASI VA UNING AXLOQIY JIHATLARI.....	227-231
<i>Kdirbaev Baxadir Berdaxovich</i> AXBOROT JAMIYATIDA MEDIA MADANIYATNING SOTSIOMADANIY TRANSFORMATSIYALARDAGI ROLI.....	232-237
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Mamadaliyeva Naibaxon, Orifboyev Abdulloh</i> O'ZBEK TILIDA "HALOL" VA "HAROM" LEKSEMALARINING ZAMONAVIY SEMANTIK, PRAGMATIK VA SOTSIOMADANIY TAHLILI.....	238-245

<i>Уринбаева Дилбар Базаровна</i> СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕСЕН УЗБЕКСКИХ И ТУРЕЦКИХ ПЕВЦОВ НА ОСНОВЕ КОМПЬЮТЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКИ: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ	246-258
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СИНТАКСИЧЕСКИЙ СПОСОБ ВЫРАЖЕНИЯ ЗНАЧЕНИЯ СРАВНЕНИЯ И ЕГО ОСНОВНЫЕ СРЕДСТВА НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ А.И. КУПРИНА	259-264
<i>Karimov Ulugbek Nusratovich</i> THE POETICS OF THE CHARACTERS' INNER WORLD IN "SPOOK COUNTRY"	265-269
<i>Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna</i> POSTMODERN NARRATIVE TECHNIQUES IN JOHN FOWLES' WORKS: AN INTERTEXTUAL, LINGUISTIC, AND AESTHETIC APPROACH.....	270-275
<i>Tokimbetova Gulbahor Abatbayevna</i> QORAQALPOQ MUMTOZ SHOIRLAR LIRIKASINING JANRIY-TEMATIK XUSUSIYATLARI	276-279
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	280-284
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i> YOLG'IZLIK FENOMENINING SEMANTIK SHAKLLANISHI VA UNING HISSIY TAJRIBADAGI IFODASI.....	285-290
<i>Bobojonov Dilshod Jumakul ugli</i> THE PRAGMATIC AND LINGUO-CULTURAL CLASSIFICATION OF NEWSPAPER HEADLINES.....	291-294
<i>Shamshetova Biybiayim Janibek qizi</i> LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIKDA ANTROPOSENTRIZM KONSEPSIYASI	295-302
<i>Xaitova Gulhayo Tovasharovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAKON VA ZAMON KATEGORIYASI DOIRASIDAGI YAQIN-UZOQ OPPOZITSIYASINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	303-307
<i>Mardanova Mohira Davron qizi</i> THE ROLE OF "THE FINANCIER" IN WORLD LINGUISTICS	308-311
<i>Khalilova Shohista Muhammadi qizi</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF UTOPIAN AND ANTI-UTOPIAN MOTIFS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	312-315
<i>Davlatova Shahnoza Muhammadiyevna</i> SUD VA TERGOV MOTIVLARINING ADABIY FUNKSIYASI	316-319
<i>Rustamov Dilshodbek</i> NUTQIY MULOQOT TAVSIFI	320-323
<i>Musayev Akmaljon Ibrogimovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK DIPLOMATIK DISKURSIDA LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLAR VA TERMINOLOGIK TIZIMNING TALQINI	324-329
<i>Shamsuddinova Diyoraxon Yorqinbek qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MEDIADISKURSINING LISONIY TAHLILI: TUZILISHI, XUSUSIYATLARI	330-333

<i>Numonova Mashxuraxon Qobiljon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "SUV/WATER" KONSEPTINING LISONIY MODELLASHUVI: NOMINATIV VA KOMMUNIKATIV MAYDONLARNING QIYOSIY TADQIQI	334-342
<i>Норкулова Шахло Абдугофур кизи</i> СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ОКРАСКА ПРОЗВИЩ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КОММУНИКАЦИЮ ...	343-345
<i>Tursunova Javhar Bakir qizi</i> O'ZBEK TILINI LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH	346-350
<i>Xoshimova Mohigul Axmatovna</i> XIX-XX ASRLAR DOSTONCHILIGIDA ADABIY TA'SIR MASALASI	351-355
<i>Омонова Мадина Аслиддиновна</i> ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЛАКУНЫ УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУРЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: ПРОБЛЕМЫ НЕПЕРЕВОДИМЫХ КОНЦЕПТОВ	356-361
<i>Abdulkhakova Dilafruz Shamsiddinovna</i> PERSPECTIVES AND THEORETICAL APPROACHES TO FORMULAIC EXPRESSIONS	362-370
<i>Abduraimova Mahliyo Valijon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GAZ SANOAT TERMINLARINING SHAKLLANISH USULLARI.....	371-373
<i>Rajat Choudhary</i> LATIN: THE TIMELESS LANGUAGE OF MEDICINE	374-377
<i>Клеблеева Резеда Радионовна</i> МИФОПОЭТИКА КАК КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА ЛИТЕРАТУРНОГО ТВОРЧЕСТВА	378-381
<i>Irbutaeva Nigora, Ozodova Dilafruz, Xoliqova Sabina</i> RUS TILIDA SO'ZLASHMAYDIGAN TALABALAR UCHUN RUS TILI DARSLARIDA QO'SHIQ MATERIALLARIDAN FOYDALANISH	382-385
<i>Dilbarjonov Ismoiljon, Gavxaroy Isroiljon qizi</i> SPORT TERMINLARINING UMUMIY XUSUSIYATLARI	386-389
<i>Arapjonova Zebo Otabek qizi</i> THE IMPACT OF ACCENT AND PRONUNCIATION ON COMMUNICATION IN GLOBAL ENGLISH.....	390-394
<i>Qarshiyeva Muxarram Shuxratovna</i> THE ADAPTATION PROCESS OF TERMS BORROWED INTO UZBEK FROM RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGES.....	395-399

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich</i> JAMOAVIY MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	400-407
<i>Zokirov Sherzod Ilxom o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI JORIY QILISH ORQALI MUROJAATLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	408-415
<i>Shermatov Nuriddin, Jamshidbek Ibrokhimov</i> SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV ISHLAB CHIQRISH (AM) INTEGRATSIYASI SHAROITIDA INSON HUQUQLARI HAMDA FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY MUAMMOLARI.....	416-428

<i>G'ulommamatova Parvina Akbarali qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KRIPTO-AKTIVLAR SOHASIDAGI JINOYATLARNI OLDINI OLISH VA TARTIBGA SOLISH BORASIDAGI XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	429-435
<i>Djalilov Javoxir Abdumajitovich</i> ISBOT QILISHNING UMUMIY SHARTLARI MAZMUNI VA TASNIFLANISHI	436-443
<i>Normurodova Behro'za Xolmo'minovna</i> RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASHDA XALQARO TASHKILOTLARNING O'RNI.....	444-450
<i>Ismailov Bekjon Salixovich</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MEHNAT HUQUQINI TA'MINLASHNING HUQUQIY KAFOLATLARI TAHLILI	451-456
<i>Mahmarahimov Ixtiyor Baxtiyorovich</i> DAVLAT XARIDLARI VA TENDER SAVDOLARIDA RAQOBATGA QARSHI XATTI-HARAKATLARNING HUQUQIY OQIBATLARI.....	457-463
<i>Almatov Sanjar Zokirovich</i> DINIY EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI.....	464-467
<i>Djuraev Farxod Eshboevich</i> JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI USULLARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI.....	468-473
<i>Sadikova Dilafruz Radjabovna</i> O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH SOHASIDA SUG'URTA MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI.....	474-481
<i>Сайфиддинов Аклиддин Анваржон огли</i> МЕСТНОЕ ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ КЕНГАШЕЙ И ХОКИМИЯТОВ	482-488
<i>Olimov Abbosjon</i> SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYASI: TUSHUNCHASI, TURLARI VA TARIXIY RIVOJLANISHI.....	489-494

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIDA HISSIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI	495-500
<i>Муталипова Мавлюда Жунайдуллаевна</i> НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ СУТЬ АКЦИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА	501-506
<i>Джуманиязов Фарход Улугбекович</i> РАЗРАБОТКА СИСТЕМЫ МЕТОДОВ И ПРИЁМОВ ОБУЧЕНИЯ, НАПРАВЛЕННЫХ НА РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ И КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ	507-510
<i>Kuvatova Nozima Baxtiyorovna</i> TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVCHINING MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH	511-515

<i>Xudayberdiyeva Nilufar Bozorovna</i> TABIIY FANLARNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH TEKNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	516-519
<i>Pirimbetov Bxit Allabaevich</i> BO'LAJAK O'QITUVCHIDA PEDAGOGIK ARTISTIZMNING TARKIBIY QISMLARI	520-526
<i>Djalolov Furqat Fattohovich</i> TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA TO'LIQ O'ZLASHTIRISH TEKNOLOGIYASINING ROLI.....	527-531
<i>Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich, Eshmuratov Marat Tangatarovich</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES AND THE INTEGRATION OF ICT IN TEACHING FOOD PHYSIOLOGY: INNOVATIVE APPROACHES IN HIGHER EDUCATION	532-538
<i>Habibullayeva Shoirra</i> O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING TAMOIYILLARI	539-542
<i>Abatov Jalğasbay Orınbaevich</i> TASVIRIY SAN'AT KOMPOZITSIYALARIDA RANGLARDAN FOYDALANISH USULLARI..	543-548
<i>Azzamov Yusuf Rajaboyevich</i> TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI RESURSLAR VA PLATFORMALAR: TAHLIL VA TASNIF.....	549-553
<i>Джумаева Зарина Бобохон кизи, Жаббарова Паризода Илхомжон кизи</i> МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ОТНОСИТЕЛЬНЫХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ	554-556

Received: 20 November 2025

Accepted: 1 December 2025

Published: 15 December 2025

Article / Original Paper

POLITICAL RELATIONS BETWEEN ABBAS I AND VALI MUHAMMAD KHAN

Bakoev Umidjon

Bukhara State Medical Institute

Lecturer of the Department of Social Sciences

Abstract. For a certain period, diplomatic relations were maintained between the Safavid Empire and the Ashtarkhanid dynasty. This article analyzes the relationship between Iranian Shah Abbas I and Wali Muhammad Khan based on sources and scientific literature.

Keywords: Ashtarkhanid, Transoxiana, Bukhara, diplomatic letter, Balkh.

ABBOS I VA VALI MUHAMMADXON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR

Baqoyev Umidjon Shuhrat o'g'li

Abu Ali Ibn Sino nomidagi

Buxoro davlat tibbiyot instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

E-mail: umidjonbaqoyev7@gmail.com

www.orcid.org/0009-0008-1728-8289

Annotatsiya. Safaviylar imperiyasi bilan Ashtarxoniylar sulolasi o'rtasida ma'lum muddat davomida elchilik munosabatlari olib borilgan. Mazkur maqolada Eron shohi Abbos I va Vali Muhammadxon o'rtasidagi o'zaro munosabatlar manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: ashtarxoniy, Movarounnahr, Buxoro, elchilik maktubi, Balx.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I12Y2025N09>

Kirish. 1605-yil may oyida Buxoro xoni ashtarxoniy Boqi Muhammadxon vafotidan keyin uning ukasi Vali Muhammadxonning hokimiyat tepasiga kelishi natijasida safaviy Abbos I bu yurishdan chekingan. Vali Muhammadxon Balx, Andxuy, Shibirg'on hududlarini akasining kenja o'g'li Nadr Muhammadga Samarqand hududlari berilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Abbos I va Vali Muhammadxon diplomatik aloqalarini Muhammad Yusuf Munshiyning "Tarixi Muqimxoniy", Iskandarbek Munshiyning "Tarixi olamroyi Abbosiy", Hoji Mir Muhammad Salimning "Silsilat us-salotin", Armeniy Vamberining "Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi" kabi asarlardan tahlil qilib, tadqiq etish mumkin. Shuningdek, Audrey Burton (1997), Anton Alekseyev (2006), Cihat Aydoğmuşoğlu (2013) Tofiq Nejefti (2021) kabi bir qator olimlar safaviy va ashtarxoniy hukmdorlar diplomatik munosabatlariga oid maxsus tadqiqotlar olib borishgan. Maqolani yozishda tizimlilik, tarixiylik, xolislik, shuningdek, statistik usullardan foydalanilib, Abbos I va Vali Muhammadxon o'rtasidagi siyosiy munosabatlar tahlil qilindi.

Muhokama. Iskandarbek Munshiy bergan ma'lumotlarga ko'ra, 1605-yil sentyabrda vafot etgan Balx hokimi Muhammad Ibrohimning yaqin do'stlaridan biri Yormuhammad Mirzo

shoh Abbas I bilan ko'rishish uchun Naxichevan (Hozirgi Ozarbayjondagi shahar)ga kelgan. U shoh Abbas I bilan uchrashuvda Gurjistonning qizilboshlar tasarrufidagi qismini Xuroson amirlariga boshliq bo'ladigan o'zbek shahzodasi Jahongirga berishni taklif qilgan va uning yordami bilan viloyatning boshqa joylarini egallab, Balxga hujumga tayyorlik qilishni bildirgan[5; B.1107]. Shoh I Abbas bu masalani amalga oshirishni boshqa vaqtga kechiktirgan. Yormuhammad Mirzo safaviy shohga dastlab Hirotning shimoli-sharqida joylashgan Gurjiston (Gruziya)ni idora qilishlarini va Balxga yurishi haqida bildirgan[7; B.164]. Bundan keyin Shoh Abbas I o'zining Xuroson va Gurjistondagi amirlariga o'zbeklarga yordam berishni buyuradi. 1605-yil dekabr oyida o'zbek shahzodalari Qazvindan Xurosonga yo'lga tushgan. Hirotga kelganlarida Husaynixon qizilbosh jangchilaridan bo'lgan shomli qabilasini 1606-yil yozida sultonzodalarga Gurjistonga yuboradi. Ular mazkur yordam orqali Gurjistonning katta qal'alarini bosib olgan. Vali Muhammadxon deyarli doim vaqtini aysh-ishratda o'tkazib, hukumat faoliyati ustidan zaif nazorat olib borgan. Uning davlat ishlaridagi ojizligidan foydalanib, ko'pchilik amirlar o'zlarini mustaqil hisoblab, aholiga qarshi zo'ravonlik uyushtirdilar va talon-taroj qildilar. Buxoro xonligidagi notinchlikdan qozoqlar va qalmoqlar ham foydalanib, Movarounnahrda bosqinlarini kuchaytirdilar, bu esa mamlakatdagi siyosiy vaziyatni murakkablashtirgan[6; B.87]. 1607-yil bahorida Safaviylar saroyidagi o'zbek shahzodalari Jahongirxon va Muhammad Salim Sulton vaziyatdan foydalanib, 13 ming kishilik qo'shin bilan Balxga hujum qilish maqsadida, Gurjistonni tark etgan. Hazora qabilalari Shibirg'on, Maymana va Chichektu amirlari Balx qozisi Shoh Bey Ko'kaldoshdan yordam so'ragan. U shaharda qolib xonga xat yozib, ko'rsatmalar so'ragan, shahar mudofaasini kuchaytirgan. Shahzodalar qo'shini Maruchaga kelganda Vali Muhammadxon Hoji Bey Qushchun boshchiligidagi qo'shinni yuboradi. Ba'zi askarlar shahzodalarning qo'shinlaridan qo'rqib, boshqa tomonga o'tib ketgan. Lekin xonning jiyanlari aralashgani uchun shahzodalar qo'shini mag'lubiyatga uchradi. Shahzodalarning qo'shini Gurjistonga qochib ketgan va yangi kuchlarni yig'ib, yana hujumga o'tgan. Vali Muhammadxon jiyani Balx hokimi Nadr Muhammad bilan ularga qarshi qo'shin yuborgan. Nadr Muhammad dushman bilan murosa qila olmagan uchun Vali Muhammadxon qo'shini boshchiligidagi Balxga shaxsan yo'l olgan. Biroq Balx amirlari Jahongirxon va Muhammad Salim Sulton qo'shinlari tomonidan Saripulda mag'lubiyatga uchradilar. Shibirg'onda aholi shahzodalar atrofiga to'planib, Balx yaqinidagi Aqchaga kelishdi. Vali Muhammadxonning sarkardasi Muhammad Boqi Bey shahzodalar qo'shiniga hujum qilib, ularni mag'lub etadi[5; B.1139-1141]. Yor Muhammad Mirzo jangda halok bo'lgan, Jahongir Mirzo qo'shini tarqatib yuborilgan va Muhammad Salim Mirzo esa asirga olingan. Shuning uchun Jahongirxon 3 ming kishilik qo'shin bilan Gurjistonga qaytishga majbur bo'ldi. Safaviylarning Balxni egallashga urinishlari muvaffaqiyatsizlikka uchragan. Vali Muhammadxon boshchiligidagi o'zbek amirlarining mavqeyi ancha mustahkamlab, ularning Xurosonga navbatdagi hujumi uchun sharoit mavjud bo'lgan. 1607-yilning kuzida Vali Muhammadxon Xurosonga ikki tomondan qo'shin yuboradi. U birinchi tomon Marv hududidan, ikkinchi tomondan esa janubdagi Badg'is tomondan qo'shinlar yurishga borishini buyurgan[2; P.121-127]. Qo'shinning asosiy qismi Badg'is-Hirot yo'lining kesishmasida joylashgan Hovzxon qal'asi oldida uch kun qarorgoh qurib joylashgan. Biroq ular qal'aga hujum qilmay, Zurobod va Bodg'iz viloyatlarida yashovchi aholini talon-taroj qilgan. Xuroson "amir-ul-umorasi" o'zbeklarning hujum haqida ogohlantirilgan. U boshqa qal'alardagi askarlarga ham xabar yuborib, qo'shinini jangga tayyorlangan. Ammo ob-havo kutilmaganda o'zgarishi natijasida qor

yog'a boshlagan va ko'plab o'zbek askarlar muzlab qolgan. Omon qolganlar chekinishga majbur bo'lgan. Chekingan askarlarning bir qismi Maruchak qal'asidan o'tayotganda, qal'a qozisi Husaynixonning o'g'li Qozoqxon ularga hujum qilgan[5; B.1142].

Marvga borgan o'zbeklar viloyatni katta qismini talon-taroj qilgan va o'ljalar bilan Chorjo'yga qaytgan. Marv hokimi Bektoshxon Ustachli qal'ada 300 kishi qoldirib, o'zbeklarni ta'qib qilishga kirishgan. O'zbeklarning bir qismi qochib ketgan boshqalari esa jangda halok bo'lgan. Bektoshxon o'zbeklar tuzgan tuzoqqa tushib qolmaslik uchun ularni ta'qib qilishdan chekingan. Bektoshxon asirga olingan 12 nafar o'zbek asirini chopar bilan Shemaxa yaqinidagi Shoh Abbas I qarorgohiga jo'natgan. O'zbek mahkumlari Xalxal yaqinidagi Miyonsaroyga yetib kelganlarida, o'zbek mahbuslaridan biri qo'lini ochib, bir qancha asirlarni qutqarib qolishga muvaffaq bo'lgan. Bektoshxon askarlari asirlar haqida atrofdagi qishloqlarni ogohlantirilgan. Biroz vaqt o'tgach asirlar qo'lga olinib, Shoh Abbas huzuriga keltirilgan va qatl etilgan[5; B.1143]. Tofiq Nejeffining yozishicha, Vali Muhammadxonning Xurosonga safari muvaffaqiyatsizlikka uchraganidan so'ng, jiyanlariga qarshi kurashish uchun Safaviylar bilan munosabatlarni yaxshilashga qaror qilgan. U yaqin kishilaridan birini Xuroson hokimining yoniga yuborib uzr so'ragan. Bundan xabar topgan Abbas I Buxoro xoni Vali Muhammadxonga maktub yozib, Yuzboshi Mirzo Ali bey Turkman orqali yuborgan. Vali Muhammadxon mazkur maktubga javoban, yaqin kishilaridan biri Shoh Muhammad Xazonachini turli qimmatbaho sovg'alar bilan Safaviylar shohi huzuriga jo'natdi[5; B.1464]. Tofiq Nejeffli yozishicha, Biroq tomonlar o'rtasidagi elchilik almashinuvi Vali Muhammadxonga qarshi ishlagan[7; S.167].

Bu davrda Vali Muhammadxon Samarqand va Balxda hokimlik qilayotgan akasi Din Muhammadning o'g'illari Imomquli va Nadr Muhammad o'rtasida ham adovat vujudga kelgan[6; C.80]. Vali Muhammadxon jiyani Imomqulini Badaxshondagi qo'zg'olonni bostirish uchun yuborgan bo'lsada, uning nufuzi oshganini eshitgach, Qurduzga orqaga qaytishini buyurgan.

Vali Muhammadxon davlat ishlarida xotirjamligi, bazm o'yinlarida ko'p vaqtini o'tkazganligi sababli o'zbek amirlari uni ag'darib, Imomqulini taxtga o'tqazmoqchi bo'lgan. 1608-yil boshida Imomquli shoh I Abbas huzuriga elchisini yuborib, undan yordam so'ragan. Shoh Abbas 1608-yil 27-martda ham Imomquliga ham Vali Muhammadxonga qimmatbaho sovg'alar va maktub bilan elchi yuborgan. Imomqulixonning elchisi shoh qarorgohida joylashgan Sari shahriga yetib kelgan. Elchi qaytayotganda shoh u bilan birgalikda Bayramalibey Ustachlini Buxoroga yuborgan. Bayramalibey Ustachli boshchiligidagi elchilar Buxoroga kelganda qabul qilingan. 1609-yil 12-iyulda Eronga qaytganidan so'ng, shohga Buxoro xoni yetkazgan ma'lumotlarni aytib o'tgan. Jumladan, Buxoro xoni Vali Muhammadxon Safaviylarga qarshi yurishlar olib borganidan afsusda ekanligi, ikki mamlakat o'rtasida tinchlik o'rtnish istagini bildirgan[7; S.168].

Safaviylar sulolasi elchiligi Buxorodan qaytganidan so'ng, Movarounnahr hukmdori bilan safaviy shoh o'rtasidagi do'stona munosabatlarning mustahkamlanib, ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar sezilarli darajada yaxshilangan. Vali Muhammadxon Balx aholisi Nadr Muhammadni qo'llab-quvvatlaganini ko'rgach, tashvishlana boshlagan. Vali Muhammadxon jiyani Imomqulixon bilan munosabatlari keskinlashgani uchun Balxni egallash maqsadida shoh Abbas Idan yordam so'ragan. U 1610-yil bahorida Safaviylar davlatining Xuroson hokimiga maktub yo'llab, Eron shohi bilan do'stona aloqalar o'rnatmoqchi ekanligini ma'lum qilgan[2; S.128].

Natijalar. Safaviy shoh bilan munosabatlarni yaxshilash istagida bo'lgan Vali Muhammadxon 1610-yilda Shoh Muhammad Xazanachiy boshchiligidagi elchilarni Abbos I saroyiga yuborgan. Mulla Jaloliddin Munajjim mazkur elchilik to'g'risida ma'lumot berishicha, Vali Muhammadxonning elchisi Shoh Muhammad Xazonchi 1610-yil 17-iyunda Tabrizda bo'lgan Shoh Abbos I huzuriga kelgan va hukmdor tomonidan qabul qilingan. Elchi Vali Muhammadxonning sovg'alarini shohga topshirdi. Sovg'alar orasida tuyalar, yuk otlari, chinni idishlar, mushk, qurol, egar, qamchi va boshqa qimmatbaho buyumlar bo'lgan. 1611-yil Yalangto'sh Bahodir, Xoja Hoshim Balxga borib Imomqulixon bilan birgalikda Vali Muhammadxonga qarshi birlashdi. 1611-yil mart oyida Imomqulixon va Vali Muhammadxon o'rtasida Qarshi yaqinidagi jang boshladi. Vali Muhammadxon qo'shini oz bo'lgani uchun tinchlikni taklif qildi. Imomqulixon boshchiligidagi qo'shin kechqurun Vali Muhammad qarorgohiga hujum qildi. Vali Muhammadxon qochib ketdi va qolgan askarlar ham taslim bo'lishdi[5; B.1494]. Vali Muhammadxon Buxoroga borgan bo'lsa-da, shahar eshiklarini hech kim ochmagan. Keyinchalik u Chorjo'yga boradi. U 1611-yil 26-mart Nadr Muhammadni Buxoroga harakat qilganini eshitib, Hajga borish uchun Shoh Abbos I dan yordam olish umidida Safaviylar hududiga qochib ketgan. Vali Muhammadxon shoh Abbos I bilan uchrashish uchun dastlab Marvga bordi. U shohga do'stona maktub yuboradi, shoh ham Vali Muhammadxonning yo'l ehtiyojlari uchun mahalliy hokimlarga topshiriq berib, sovg'alar ham yubordi. Vali Muhammadxon dastlab Mashhadga borib, Imom Rizo qabrini ziyorat qildi. Shoh I Abbos Vali Muhammadxonga sovg'alar oltin, tuyalar, chodirlar, Iroq otlari, don, gilam, teri, mo'yna, sham, kiyim-kechak va pul yubordi. Vali Muhammadxon Mashhad yaqinidagi Chor Bog'da Mashhad darg'asi Shoh Nazarbeyning ukasi Mirzo Arab tomonidan qarshilangan. So'ngra Iroqi Ajam tomon yo'l olib, Bistomga keladi va Astrobod qozisi Farhodxon kutib olingan. Bu yerda esa Eshikog'aboshi Aliqulixon Shamli tomonidan tarafidan qarshilangan. Ertasi kuni Aliqulixon Vali Muhammadxonga mezbonlik qiladi va unga ko'plab sovg'alar berildi[5; B.1497]. Vali Muhammadxon shoh qarorgohi Koshonada joylashgan Isfahonda tantanali ravishda kutib olingan. Isfahondagi qarorgohigacha bo'lgan uch farsax yo'lning ikki tomonida minglab qo'shin saf tortgan. Vali Muhammadxon Shoh Abbos I, Ollohberdi bey, Ollohquli bey va Nadrxon Muhrdor kabi yuqori amaldorlar bilan birgalikda Isfahondan 15-20 kilometr uzoqlikda joylashgan Davladobodda kutib olingan. Shoh Abbos Vali Muhammadxon bilan ko'rishib, iliq munosabatda bo'ldi. Kamol Davlatobodiy ismli shayx Shoh I Abbos va Vali Muhammadxonni xonaqohiga taklif qiladi. Kutib olinganidan keyin xon Shoh I Abbos bilan birlikda qiymatli ashyolar bilan bezatilgan 20 ming saf tortgan askarlarning yonidan o'tib, shaharga kirishgan. Shoh saroyidagi uylarning birini Vali Muhammadxonga topshirgan.

Ertasi kuni Shoh Abbos I uni ziyorat qilib, iliq suhbat qildi. Uni ziyofatlarga, maxsus kechki ovqatlarga va shikorlarga taklif qilgan. Vali Muhammad Naqshi-Jahon maydonida tashkil qilingan chavgon o'yinidan, ot va o'q otish musobaqalaridan juda ta'sirlangan[2; P.130]. Shoh Abbos I Vali Muhammadxonga Buxoro taxtini qaytarib berishga yordam berishini va'da bergan, ammo keyingi yil Ozarbayjonni to'liq ozod qilgan keyin ko'maklashishini bildirgan. Vali Muhammadxon shohning zudlik bilan yordam bermasligini anglagach, xonlikka qaytishni o'ylagan. Bu vaqtda Vali Muhammadxon xotini Oyxonim bilan nikohi buzilganini, Imomqulixonning Oyxonimga uylanganini bilib olgan. Bu vaqtda Movarounnahrda Vali Muhammadxon da'vat maktublarni olgan. Mazkur vaziyatda Vali Muhammadxon Buxoro xonligiga qaytishga qaror qilgan[5; B.1504]. Vali Muhammadxon xonlikka qaytishidan oldin

Safaviy shohining qizilbosh askarlari bilan Movaraunnahrda ketganida iliq qarshilanmaganini, bu sababdan Hirotida kutib turgan o'g'ling harbiy kuch berishini va bu kuchlarning Gurjistondan hujum qilishini istagan. Shoh I Abbas bu rejaga rozi bo'lmasa-da, keyinroq qabul qildi. Shoh I Abbas Marv hokimi Mehrobqulixon, Mashhad hokimi Mirzo Arabxonga amr qildiki, *"Vali Muhammadxon o'z vataniga qaytganida uning buyrug'ini bajaring va dushmanlariga qarshi kurashda yordam bering*[7; S.172]. 1611-yil 30-iyulda Vali Muhammadxon Safaviylar saroyini tark etgan. Shoh I Abbas bir necha kun oldin Ozarbayjonda safariga jo'nab ketishga hozirlangan. Shoh Abbas I Vali Muhammadxon ketishdan oldin otlar, tuyalar, xachirlar, chodirlar va qurollar taqdim etgan[5; B.1506]. Shuningdek, safaviy hukmdor unga qo'shin to'plash uchun 50 ming tuman pul va Zaynalxon boshchiligidagi qizilbosh askarlarni bergan[3; S.209].

Tarixchi Muhammad Yusuf Munshiyning yozishicha, Shoh Abbas I Vali Muhammadxonga Imomqulixonga qarshi jang qilish uchun 80 ming askar bergan[6; C.81]. Tarixchi olim Anton Alekseyev Muhammad Yusuf Munshiy o'zining asarda Safaviylar qo'shini soni bo'rttirib ko'rsatilganligini ta'kidlaydi[1; C.116].

Vali Muhammadxon Mashhadga yetib borgach, Balx yoki Buxoro hujum qilishga ikkilandi. Vali Muhammadxon Chorjo'y va Buxoroga, o'g'li esa qizilbosh qo'shini bilan Balxga hujum qilgan. Vali Muhammadxon Buxoroga yurish qilganda Imomqulixon Buxoroda edi. Vali Muhammadxon 1611-yil 25-avgustda Chorjo'yni va ertasi kuni Buxoroni egallagan. Jiyani Imomqulixon Qarshiga qochgan.

Mahmud ibn Vali o'zing "Bahr ul-asror" asarida voqealarni birmuncha boshqacharoq tasvirlagan. Uning yozishicha, Vali Muhammadning buyrig'iga ko'ra Poyanda otaliq turkman tomonidan fitna uyushtirgan[1; C.118]. U Buxoro taxtini egallagandan so'ng jiyani Imomqulini qo'llab-quvvatlagan odamlardan qasos ola boshlagan. Ammo uning bu qadami atrofidagi tarafdorlarning yo'qolishiga olib keldi. Oyxonimning turmushga chiqishiga javobgar bo'lgan Jubayriyning Shayx Abdurahimni jazolagani uchun uning yordamidan mahrum bo'lgan. Vali Muhammadxon Imomqulixonni qo'llab-quvvatlaganlar qattiq jazolashni boshlagan[2; P.132]. Xususan, Vali Muhammadxon kuchli mang'it qabilasining yo'l boshchisi Ali Sayyidbiyni qatl ettirgan, Do'stimbiy arg'un, Shohquchoqbiy qushchi va boshqa Buxoro zodagonlarining ko'zga ko'ringan vakillari qatl etishga hukm qilgan[1; C.116]. U o'ziga xiyonat qilishi mumkin bo'lgan odamlarni tutib, qattiq qiynoqqa solgan. Birozdan keyin yonidagi amaldorlar ham xuddi shunday vaziyatga tushib qolishdan qo'rqib, unga yordam berishdan bosh tortdilar[2; P.132]. Birinchi bo'lib Samarqand amirlaridan Yalangto'shbiy otaliq olchin, Muhammad Boqi qalmoq, Nadr bek, Shukurbiy saroy va boshqalar Imomqulixon tomoniga o'tishgan[1; C.116].

Vali Muhammadxon Buxoroni osonlik bilan bosib olgani uchun xonlik boshqa shaharlarini ham bosib olishda qiynalmasligini o'ylagan. Shuning uchun qizil askarlarning yarmini Shoh Abbas I huzuriga yuborgan va shohga butun mamlakatni boshqarganligini bildirgan. U jiyani Qarshida ekanligini shohga bildirib o'tgan. Xon oldidagi amaldorlar jiyani Samarqandda bo'lmagani uchun shaharni bemalol bosib olishlarini aytishgan. Vali Muhammadxon yonidagi qizilboshlardan Budoq bey Qojar bilan maslahatlashib, Qarshida bo'lgan Imomqulixonga qarshi kurashish uchun o'n yetti ming jangchi bilan poytaxtini tark etishga qaror qilgan[1; B.1513].

Imomqulixon tarafdorlari Vali Muhammadxon Qarshidan keyin Samarqandga yurishini bilib oldilar va ular Qarshiga borib, Imomqulixonni yashirinchalik Samarqandga olib keldilar[5; B.1514]. Mazkur vaziyatdan xabari bo'lmagan Vali Muhammadxon Samarqandga sekin

yurishga harakat qildi. Vali Muhammad Imomqulixon va Nadr Muhammadga qarshi yurish uchun 70 mingga yaqin askar to'plashga muvaffaq bo'lgan[1; C.120]. U Samarqandga yaqinlashgach, Imomqulixon kelganini bilgan. Vali Muhammadxonning sustligi Imomqulixon va uning ukasi Nadr Muhammadga mudofaa choralari ko'rishga imkon bergan. Vali Muhammad jang maydoniga juda kech yetib kelgan va qo'shinning soni ko'p bo'lishiga qaramay, Qozoq xoni 5 minglik kuch yuborilishini kutish kerak bo'lgan. Qozoq xoning faqat 300 kishilik qo'shini yetib kelgan. Vali Muhammadxon qo'shinlariga qarshi birinchi bo'lib, Imomqulixon hujum qilgan. Qizilbosh askarlar Imomqulixonga qarshi yaxshi mudofaa olib bordilar. Ammo Samarqanddagi diniy vakillar Imomqulixonni qo'llab-quvvatladilar va Vali Muhammadni kofir deb e'lon qildilar. Shu sababli yordamga kelgan qozoq qo'shinlari Imomqulixonga qo'shilgan. Qozoqlarning Imomqulixon tomonga o'tib ketishi Vali Muhammadxon qo'shinida vahima qo'zg'atgan va qo'shin tarqalib ketgan. Vali Muhammadxon yonidagi 300 nafar qizilbosh askari bilan oxirigacha kurashgan. Iskandarbek Munshining jangning aniq sanasini 1020/1611-yil rajab oyining 7 payshanbasi deb ko'rsatilgan. Vali Muhammad mag'lubiyatga uchragan. U asirga olinib, Imomqulixon buyrug'iga ko'ra qatl etilgan[1; C.119]. Urushda sog' qolgan 40-50 nafar qizilbosh akarlar savdogarlar kiyimida Xurosonga qaytib ketgan. Vali Muhammadxonning o'g'li ham Safaviylar saroyidan panoh so'ragan[5; B.1519]. Budoqbey Qoraj juda qiyinchilik bilan Buxoroni tark etib, Tabrizga kelgan va voqea-hodisalarni Safaviy shoh Abbas Iga yetkazadi. Abbas I Hirotda bo'lgan Vali Muhammadxonning o'g'li Rustam sultonga chopar yuborib, tasalli bergan va Xuroson hokimi Husayn Shamlini butun ehtiyojlarni bajarishini bildirgan[3; S.209].

Xulosa. Eronda hukmronlik qilgan Safaviylar sulolasi Buxoro xonligini idora qilgan Shayboniylar sulolasi inqirozidan keyin, o'z davrida muhim ahamiyatga ega bo'lgan Xurosonni bosib oldi. Ammo ularning asosiy maqsadi Balx va Buxoroni o'ziga bo'ysundirish hisoblangan. Ammo ular mazkur ishni bajara olmadi. Vali Muhammadxon Eron shohi Abbas I yordamida bir necha marotaba Buxoro taxtini jiyani Imomqulixondan qaytarib olishga urinishlari samarasiz yakunlangan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Алексеев А. Политическая история Тукай-Тимуридов: По материалам персидского исторического сочинения Бахр ал-асрор. Санкт-Петербург, 2006.
2. Burton A. The Bukharans. A dynastic, diplomatic and commercial history 1550–1702. Curzon, 1997. – 664 p.
3. Cihat Aydoğmuşoğlu C. Şah Abbas ve zamanı. Doktora Tezi. – Ankara, 2013. – 320 s.
4. İsgəndər bəy Münşi Türkman. Dünyanı bəzəyən Abbasın tarixi (Tarixe-aləmaraye-Abbasi). I kitab. – Bakı. “Şərq-Qərb” Nəşriyyat evi, 2010. – 1144 s.
5. İsgəndər bəy Münşi Türkman. Dünyanı bəzəyən Abbasın tarixi (Tarixe-aləmaraye-Abbasi). II kitab. – Bakı. “Şərq-Qərb” Nəşriyyat evi, 2014. – 1400 s.
6. Мухаммад Юсуф Мунши. Муким-ханская история / Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатели А.А.Семенова. – Ташкент. Издательство Академии наук Узбекской ССР, 1956. – 303 с.
7. Tofiq Nəcəfli. Azərbaycan Səfəvi imperiyasının Türkünstan xanlıqları ilə siyasi əlaqələri. – “İdeal-Print” MMC, Bakı, 2021. – 342 s.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).